

## MAHALLIY VA XORIJDAN KELTIRILGAN MAKKAJO‘XORI NAV NAMUNALARINING DON HOSILDORLIGI

*Jozilova Nafisa*

*TDAU Samarqand filiali magistranti*

*Ilmiy rahbar: Boboqulov Zarif Ph.D*

**Annotatsiya.** Birorta boshqa o‘simlik makkajo‘xori kabi keng miqiyosda va turli-tuman ehtiyojlarni qondira olmaydi. O‘zbekistonda makkajo‘xoridan ishlab chiqariladigan mahsulotlar juda ham kam nomda bo‘lib, u asosan silos, so‘tali yashil massa olish va omuxta yem ishlab chiqarish xom-ashyosi sifatida don uchun yetishtiriladi.

**Kalit so‘zlar:** hosildorlik, makkajo‘xori, mahsulot, silos, metod.

### KIRISH

Makkajo‘xori juda serhosil ekin. Birorta boshqa o‘simlik makkajo‘xori kabi keng miqiyosda va turli-tuman ehtiyojlarni qondira olmaydi. O‘zbekistonda makkajo‘xoridan ishlab chiqariladigan mahsulotlar juda ham kam nomda bo‘lib, u asosan silos, so‘tali yashil massa olish va omuxta yem ishlab chiqarish xom-ashyosi sifatida don uchun yetishtiriladi. Makkajo‘xori o‘zining mahsuldorlik potentsiali va ozuqaviylik qiymati bo‘yicha barcha don-furaj ekinlaridan ustun turadi. Uning bir kilogram donida 1,34 ozuqa birligi, mum pishiqlikdagi 1 kg so‘tali yashil massasida 0,24 ozuqa birligi va so‘talari yig‘ib olingandan keyingi 1 kg pichanida 0,37 ozuqa birligi mavjud. Hozirgi kunda dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida makkajo‘xori o‘simliklarining fiziologik imkoniyatlari va tezpisharlik guruhiga bog‘liq ravishda genetik potentsialni to‘la amalga oshirish maqsadida ko‘pgina ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

### ASOSIY QISM

Makkajo‘xori don va yashil massa hosilining shakllanishida o‘simlik qalinligi bilan bir qatorda mineral oziqlantirish ham katta rol o‘ynaydi. Azotli, fosforli va kaliyli o‘g‘itlarme‘yorini to‘g‘ri va o‘z vaqtida qo‘llash makkajo‘xori duragaylari hosildorligini yuqori darajada oshiradi. O‘simliklarning hayot faoliyatiga ayniqsa azotli o‘g‘itlar me‘yorining o‘zgarishi kuchli ta‘sir ko‘rsatadi [3].

Makkajo‘xori - issiqsevar o‘simlik. Urug‘larini tuproqda ekish chukurligidagi harorati 10-12 °C ga yetganda ko‘karib boshlaydi. Hozirgi paytda urug‘lari 5-6 °C da una boshlaydigan biotiplar yaratilgan. Biomassasining o‘sishi harorat 10 °C ga yetganda (pasayganda) to‘xtaydi [4].

Makkajo‘xorida harorat 6,6 °C ga pasayganda yangi barglar hosil bo‘lmaydi. Vegetativ organlari hosil bo‘lishi uchun kechqurun harorat 16-20 °C, generativ organlari uchun 19- 23 °C bo‘lishi kerak. Bu davrda haroratning ko‘tarilib ketishi changlanishini

kechiktiradi. O'simlik harorat 45-48 °C bo'lganda o'sishdan to'xtaydi. Makkajo'xorining changchilarida 60 % suv bo'lib, ularning suv ushlab qobiliyati past. Harorat 30-35 °C, nisbiy namlik 30 % bo'lganda changdonlar yorilgandan keyin 1-2 soat davomida changlar quriydi va o'sish xususiyatini yo'qotadi va shu vaqtda changlanish sodir bo'lsa, so'tada donlar siyrak hosil bo'ladi. Donning to'lishi va shakllanishi yuqori haroratda tez o'tadi, 5 °C ga pasayganda fazalar orasidagi davr uzayadi. Binobarin, har bir rivojlanish fazasining o'tishi uchun ma'lum harorat yig'indisi zarur. Ertapisharligi bo'yicha turlicha bo'lgan fazalar o'rtasidagi farq, asosan unib chiqish va ro'vaklash davriga to'g'ri keladi I.V.Massino [1].

2022-2024 yillar uchun mo'ljallangan ilmiy tadqiqot ishlarida makkajo'xorini xorijiy va mahalliy nav namunalari kolleksiya ko'chatzorida biologiyasi, morfologiyasi, fenologiyasi, biometrik ko'rsatkichlari, hosildorlik va ularning sifatini o'rganish, qimmatli xo'jalik belgilariga ega bo'lganlarini tanlab olish va seleksiya ishlariga jalb etish maqsad qilib oliishdan iborat.

Kolleksiya tajribasida delyankadagi har bir o'simlikning don hosili muhim hisoblanadi. Tajribadagi makkajo'xori namunalaridan don hosildorligi aniqlandi va quyidagi ma'lumotlar olindi (1-jadval).

1-jadval

**Makkajo'xori kolleksiya namunalari don hosildorligi (2022 yil)**

№	Namuna nomi	Keltirilgan joy nomi	Toza don	
			kg/del (4,2 m <sup>2</sup> )	t/ga
1	Линия 35	MG	2,18	5,2
2	Местная	KZ	1,81	4,3
3	Эльсия	AT	2,48	5,9
4	Порумбень 393	MD	1,97	4,7
5	Порумбень 373	MD	2,14	5,1
6	Бемо 181	MD	2,27	5,4
7	Sweet Corn Renot	IL	2,18	5,2
8	СМВ-240	HU	2,73	6,5
9	Рано-1	HU	2,35	5,6
10	МВ-230	HU	2,52	6,0
11	Нарт-150	HU	2,48	5,9
12	КВС-353	HU	2,56	6,1
13	МВ-211	HU	2,31	5,5
14	Тк-178	HU	2,48	5,9
15	МВ-500	HU	2,52	6,0
16	МВ-270	HU	2,56	6,1
17	МВ-170	HU	1,85	4,4
18	МВ-255	HU	2,18	5,2
19	Марос	HU	2,73	6,5
20	МВ-251	HU	2,35	5,6
21	Bongair	ES	2,81	6,7
22	MANACOR	ES	2,98	7,1
23	MOTRIL	ES	3,02	7,2
24	RGT CORUXX 10	ES	3,86	9,2

25	АЖЕВ	ES	3,02	7,2
26	Donana	ES	3,57	8,5
27	Форворд	ES	2,39	5,7
28	CML78xCML373	CIMMYT	2,56	6,1
29	Kandy corn	US	2,27	5,4
30	SF15ZM9E102	US	2,60	6,2
31	Лин. ДВСС 5	DE	2,31	5,5

### XULOSA VA MUNOZARA

Don hosildorligi eng kam Qozog'istondan keltirilgan Mestnaya namunasida gektaridan 4,3 t/ga, eng ko'p mahalliy Kelajak 100 namunasida 9,3 t/ga ekanligi aniqlandi. Eng kam va eng ko'p don hosili orasidagi farq 5,0 t/ga teng bo'ldi. Don hosildorligi bo'yicha aniqliklar kiritilgandan so'ng, o'rganilgan duragay namunalari ichidan 8 ta namuna ajralib chiqdi. Bu namunalar Ispaniyaning Donana, RGT CORUXX 10, Turkiyaning DKS 5741, VT 6470, Xitoyning Jing Ke 868, Yu Feng 303, O'zbekistonning Kelajak 100, O'zbekiston 601 YeSV namunalari. Ajralib chiqqan namunalar ustida keyingi yilda nazorat tajribasi olib boriladi.

Don hosili bo'yicha tajriba uchun ajratib olingan makkajo'xori namunalari ichidan eng kam Turkiyaning VT 6470 namunasida 7,3 t/ga ni tashkil etgan bo'lsa, eng yuqori mahalliy Kelajak 100 namunasida 9,5 t/ga aniqlandi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Massino I.V., Axmedova S.M., Ashurov K. Fermer hzhaliklarida yuqoridabop ekinlar etishtirish texnologiyasi bo'yicha tavsiyanoma. Toshkent 2007 yil, 24 b.
2. Qishloq xo'jalik ekinlarining davlat nav sinovini o'tkazish metodikasi. M.: Kolos, 1984 yil, №. 1. Umumiy qism. 248 b.
3. Kosimov M.I., Massino A.I. Makkajo'xori yangi duragay.// Tatariston Niva, № 3, 2001 yil, p. 28-30.
4. Xaldarov U. Toshkent viloyati sieroz tuproqlarida silos va don uchun Vir 338 gibrud makkajo'xori zichligini o'rganish. Abstrakt Diss qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, Toshkent, 1967, 24 b.